

“NODIR UL-ME’ROJ” ASARINING TOSHBOSMA NUSXASI

Bahramov Bahrom
TDSHI Manbashunoslik - 2 kurs

Annotatsiya

Ushbu maqolada “Nodir ul-me’roj” asarining toshbosma nusxasi haqida gap boradi. Maqolada toshbosma nusxa manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilingan.

Rasulullohning shakli shamoillari, siyratu sifatleri, insoniy fazilatleri, boshqa paygʻambarlardan farq etadigan xususiyatlari toʻgʻrisida u bilan birga yurgan, suhbatlaridan bahramand boʻlgan sahobalar hamda nikohlarida boʻlgan ayollari tomonidan naql qilingan rivoyatlar asosida koʻplab asarlar bitilgan. Ulardan Abu Iso Termiziyning “Shamoili nabaviyya”, Muhammad Busiriyning “Qasidai burda”, Abu Jaʼfar Barzanjiyning “Mavludun-Nabiy”, Muhammad Ibn Solihning “Muhammadiyya”, Mavlono Muʼinning “Siyari sharif”, Ibodulloh Akbar Obodiyning “Nodir ul-Me’roj”, Sayyid Mahmud Taroziyning “Shirin kalom”, “Nurul kalom”, “Nurul basar” va boshqa koʻplab asarlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Biz tadqiq qilayotgan “Nodir ul-Me’roj” asarida ham, Rasululloh (s.a.v.) hayot vaqtlarida qilgan nasihatleri, oʻgʻitleri, asosan, Rasulullohning meʼrojleri haqida zikr etilgan.

Kitob haqida qisqacha maʼlumot beradigan boʻlsak, kitob katta hajmda boʻlib, olti yuz betdan iborat. Kitob muqovasi maxsus mato bilan qoplangan, kitob boshiga ikkita boʻsh varaq qoʻyilgan. Soʻngra goʻzal naqshlar bilan bezatilgan kitob nomi, ust va ost qismlarida arab va fors tillarida kitob haqida qisqa sheʼr berilgan varaq keladi. Sheʼr muallifning ijodkorona uslubini, uning mahoratini kamtarona bildirib turishi mumkin.

1. كتابي كه ابرور جمله كتاب باشينه تاج
2. چونكه مذکور ابرور انده بيان معراج
3. کيم معراج نبی ذکر یغه عاشق ابرسه
4. بو کتابنی اوقوغایکیم انکه یوق باشقه علاج

Yaʼni: Kitobiki erur jumla kitob boshina toj,

Chunki mazkur erur anda bayoni meʼroj.

Kim meʼroji nabiy zikriygʻa oshiq ersa,

Bu kitobni oʻqigʻaykim anga yoʻq boshqa iloj.

Bu asar ham boshqa qoʻlyozma va toshbosma asarlardagi kabi basmala, hamd va naʼt bilan boshlangan. Bular oltinchi betgacha davom etgan, soʻng sahobalar zikri berilgan.

Asosiy qismga oʻtishdan oldin muallif Akbarobodiy bu asarni yozishiga boʻlgan ishtiyoqini quyidagicha taʼriflab oʻtgan. Akbarobodiyning Rasuli akram (s.a.v.) meʼrojlariga ishtiyoqi baland edi. Kechayu-kunduz u Hazratning (s.a.v.) meʼroji sifatlarini va naʼtlarini eshitishga ixlosmand edi. Ulamo va fuzalolarning meʼroj haqidagi suhbatlaridan oʻzgacha bahra olar edi. Qayerda biror olim yoki donishmand haqida eshitib qolsa, undan meʼroj haqida soʻrar edi. Tafsiir va Hadis kitoblaridan “Meʼroji nabaviy” haqidagi maʼlumotlarni toʻplash uning asosiy mashgʻulotiga aylandi.

Hamma vaqt, xoh bedorlikda, xoh uyquda boʻlsin, Hazratining (s.a.v.) meʼrojleri zikridan boshqa narsa bu faqirmi xotiri goʻshasiga kelmas edi. Shu ishtiyoq va ragʻbat, Akbarobodiyning “Nodir ul-Meʼroj” asarini yozishiga sabab boʻldi.

Asarning 123-sahifasida muallif paygʻambar alayhis salomni madh etib, bobning mazmunidan kelib chiqqan holda shunday ruboiy keltirgan:

5. شهنشاهي ابرورسن قیده بولسنک خوب زیبا سن
6. همه عاصي کنهکاره شفاعت خواه فرداسن
7. همه مه روي عالم زينت ايله تابسه آرایش
8. خدا بیرکان سنکاکیم زينت عالمکه آراسن

Yaʼni: Shahanshoihy erursan qayda boʻlsang xub zebosan,

Hame osiy (gunohkor, maʼsiyat ahli) gunohkora shifoatxoh (ummatlarining gunohi kechirilishini soʻrashni istaydi) fardosan.

Hamema ruye olam ziynat ila topsa oroyish,

Xudo bergan sanga kim ziynat olamga orosan.

Yuqorida zikr qilingan ruboiy xajaj bahrida yozilgan.

Asardagi har bir bob mana shunday ruboiy, qitʼa, masnaviylar bilan nihoyalangan va keyingi bobga oʻtilgan. Yozilgan qitʼa, masnaviy va ruboiylar muallifning shoirlilik mahoratini ham aks ettirib turadi.

Ushbu asar boshqa meʼrojnoma asarlar ichida oʻzining turli adabiy janrlarga boy ekani bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Habibullayev, Adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning nazariy masalalari, Toshkent 2012.

2. Muhammadjon Yuspov, An-na`iyim, Toshkent 2003.
3. Hadisi sharif, Toshkent, 1998.
4. www.ziyo.uz